

THE STUDY OF ABU HANIFA'S PERSONALITY AND SCHOLARLY LEGACY

Ilhomova Khamida Alisher kizi

International Islamic Academy of Uzbekistan
Master's student of the specialty Islamic Studies

Abstract. This scholarly article examines the life and intellectual legacy of Abu Hanifa Nu'man ibn Thabit through the integration of juridical (fiqh) and theological (aqidah) approaches. The study analyzes Abu Hanifa's theological views alongside his fiqh methodology, his contribution to the science of kalam, and his positions on issues related to creed and faith, based on primary sources. In addition, the article provides a scholarly discussion of the influence of the theological school founded by Abu Hanifa on the subsequent formation of the Maturidi doctrine.

Keywords: Abu Hanifa, fiqh, aqidah, methodology, Maturidism, globalization, Ahl al-Sunnah wa al-Jama'ah, madhhab, doctrine, Companions (Sahaba), Successors (Tabi'un).

ABU HANIFA SHAXSIYATI VA ILMIY MEROSINING O'RGANILISHI

Ilhomova Xamida Alisher qizi

O'zbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasi

Islomshunoslik mutaxassisligi magistranti

Annotatsiya. Mazkur ilmiy maqolada Abu Hanifa No'mon ibn Sobitning hayoti va ilmiy merosi fiqhiy va aqidaviy yondashuvlar uyg'unligida tadqiq etiladi. Tadqiqotda Abu Hanifaning fiqh metodologiyasi bilan bir qatorda, uning aqidaviy qarashlari, kalom ilmiga qo'shgan hissasi, aqida va imonga doir masalalardagi pozitsiyasi asosiy manbalar asosida tahlil qilinadi. Shuningdek, Abu Hanifa tomonidan asos solingan aqidaviy yo'nalishning keyinchalik Moturidiylik ta'limoti shakllanishiga ta'siri ilmiy asosda yoritiladi.

Kalit so'zlar: Abu Hanifa, fiqh, aqida, metodologiya, Moturidiylik, globallashuv, ahli sunna val jamoa, mazhab, ta'limot, sahoba, tobein.

Davlat rahbari tomonidan "Aqida va kalom ilmi rivojiga beqiyos hissa qo'shgan Imom Moturidiy va uning izdoshlari bo'lgan allomalarning ulkan ilmiy, diniy-ma'naviy merosini chuqur o'rganish, ular yaratgan asarlarning ilmiy-izohli tarjima va qiyosiy matnlarini nashr etish, xalq va jahon jamoatchiligi o'rtasida keng targ'ib qilish, ushbu mavzularga doir ilmiy tadqiqotlarni tizimli tashkil etish" ustuvor vazifa qilib olindi[1].

Islom tafakkuri tarixida Imom A'zam Abu Hanifa shaxsiyati ko'p hollarda fiqhiy maktab asoschisi sifatida talqin qilinadi. Biroq ilmiy manbalarni chuqur tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, Abu Hanifa nafaqat fiqhda, balki islom aqidasi himoya qilish va asoslashda ham muhim rol o'ynagan mutafakkirdir. Aynan uning faoliyati natijasida aqida masalalari ilk bor tizimli, mantiqiy va daliliy

asosda muhokama qilina boshlagan. Mazkur maqola Abu Hanifaning ilmiy merosini fiqh va aqida ajralmas bir butun tizim sifatida yoritishni maqsad qiladi.

Globalashuv sharoitida buzg'unchi g'oyalar ta'sirida murakkablashib, asl mazmun-mohiyatini yo'qotayotgan imon, tavhid, fiqh, kalom va shu kabi mavzulardagi tushunchalarni buyuk olimlar, mazhab tamal toshini qo'yishda ulkan xizmat qilgan imomlarning ilmiy meroslari va asarlari orqali yoritib berish o'ziga xos ahamiyatga ega. Bu esa o'z navbatida ana shunday buyuk olimlarning hayoti, bosib o'tgan yo'llari, ilmiy meroslari, keyingi avlodlarga yozib qoldirgan nodir asarlari va kitoblarini chuqur o'rganish va ochilmagan jihatlarini tahqiq qilishni taqazo qiladi.

Islom olamida ahli sunna val jamoadan deb e'tirof qilingan moturidiylik aqidaviy ta'limotining, shuningdek ahli sunna val jamoa to'rt mo'tabar fiqhiy mazhablaridan biri bo'lmish hanafiy mazhabi fiqhining asosiy tamal toshini qo'yishda eng birinchi poydevor shaxs buyuk imom Abu Hanifa hisoblanadi. Olimning hayoti, faoliyati va ilmiy merosi nafaqat tarixda balki, bugungi kunda ham o'zining ilmiy-tarixiy ahamiyatini yo'qotmay kelmoqda. Bundan tashqari bugungi kunda adashgan toifa vakillarida uchraydigan illatlarga olim o'z davrida munosabat bildirgani ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Abu Hanifa hayoti, faoliyati, ilmiy merosi G'arb va Sharq olimlari tomonidan tadqiq etilib, bu bo'yicha ilmiy tadqiqotlar amalga oshirilgan va maqolalar e'lon qilingan. Olim haqidagi dastlabki ma'lumotlar "Tarixi Bag'dod", "Tarixi Islom", "Siyaru a'lamin nubalo", "Javahirul mudiyya", "Manaqibul Kardariy", "Kashful asror" kabi manbalarda qayd etilgan[2].

Abu Hanifaning asl ismi No'mon ibn Sobit ibn Zuto ibn Moh ibn Mirzabon Taymiy Kufiy bo'lib, hijriy 80-yilda Iroqning muhim ilmiy markazlaridan biri bo'lgan Kufa shahrida Abdul Malik ibn Marvon xalifalik davrida dunyoga kelgan. Abu Hanifa esa u kishiga berilgan kunya bo'lib, Iroqliklar tomonidan olimning tinimsiz ilmiy faoliyat olib borganligi sababli berilgani qayd etilgan. Olim yashagan davr kichik sahobalar hayot bo'lgan davrga to'g'ri kelishi, sahoba Anas ibn Molik Kufaga kelgan vaqtda olimning u zot bilan ko'rishgani e'tiboridan, Abu Hanifa kichik tobeinlardan hisoblanadi[3].

Kufa shahri sahobalar, tobeinlar va fiqhiy maktablar faoliyat yuritgan markaz bo'lib, unda Abdulloh ibn Mas'ud maktabi ta'siri kuchli edi. Aynan shu muhit Abu Hanifa tafakkurining shakllanishida muhim rol o'ynadi.

Abu Hanifa dastlab tijorat bilan shug'ullangan bo'lsa-da, keyinchalik ilmga to'liq yuzlandi. U fiqh ilmini Hammad ibn Abu Sulaymondan mukammal o'rgandi va uzoq yillar davomida uning ilmiy majlisida faol ishtirok etdi. Shuningdek, u Ato ibn Abu Raboh, Nofi', Qatoda, Ikrima kabi mashhur tobeinlardan ilm olgan[4].

Abu Hanifa o'z dunyo qarashiga ega, o'ziga xos mustaqil yo'lni tutgan faqih olim edi. U haqida aytilgan maqtov sadolari avlodlar osha jaranglab, u zotning siyratlariga xush bo'y taratib kelmoqda. Ulamolardan biri shunday degan edi: "Men Abu Hanifaning huzurida besh yil bo'ldim. U kishidek uzoq sukut saqlaydigan kishini ko'rmadim. Agar fiqhdan biror savol so'ralsa, ochilib, seldek quyilar edi". Zamondoshlaridan biri Abdulloh ibn Muborak u zotni: "Ilmning mag'zi", deb tavsiflaganidek, ilmning eng tubigacha yetib borgan edi. Masalalarning tub mohiyatiga yetib borar va

o‘zining usuliy qoidalarini shu asosga barpo qilar edi. Zamonasida fikri, ilmi va ilmiy munozaralari bilan shuhrat qozondi. Mutakallimlar bilan munozara qilar, bid’atchi toifalarning havoiiy aqidalariga raddiya berar, turli fiqaralar bilan munozara qilar edi. U zotning kalom ilmi masalalarida o‘ziga xos qarashlari borligi ma’lum. Hatto, bu ilmda u kishiga mansub risolalar ham mavjud. U zot fiqh, taxrij, hadislarni tushunish, ahkomlarning illatini istinbot qilish va unga usuliy qoidalarini asoslash borasida yuksak maqomga egadir. Bu haqda zamondoshlaridan biri: “Men hadisni tushunish borasida undan yaxshiroq kimsani ko‘rmadim”, degan.

Abu Hanifaning bosib o‘tgan yo‘liga nazar qilinsa, komil inson bo‘lmoqlik uchun faqat chuqur ilmga ega bo‘lishning o‘zigina kifoya qilmasligiga, balki, ilm bilan barobar ibodat ham komillikning muhim omili ekanligiga yana bir bor ishonch hosil qilinadi. Bunga Abu Hanifaning holi yaqqol misoldir. U xufton namoziga qilgan tahorati bilan bomdod namozini o‘qigan. Bu holat qirq yil muttasil davom etgan. Imom Abu Hanifaga g‘assollik qilgan Hasan ibn Ammora muborak jasadni g‘usl qilib bo‘lganidan so‘ng yoshli ko‘zlari bilan mayyitga qarab: “Alloh seni o‘z rahmatiga olsin, gunohlaringni mag‘firat qilsin, o‘ttiz yildan beri ro‘zador ekansan, qirq yildan beri boshing yumshoq yostiqaqa yetmagan ekan”, deb xitob qilgan ekan.

Ibn Abdul Barr Abu Hanifani yod etib shunday deydi: “Abu Hanifani yomonlik bilan zikr qilmaymiz. U haqida aytilgan biron yomon so‘zni tasdiqlamaymiz. Abu Hanifadan taqvodorroq, faqihroq, fazilatliroq biron zotni ko‘rmadim” [5].

Imom Shofeiyy: “Odamlar fiqhda Abu Hanifaga muhojdirilar”, deya Abu Hanifaning fiqh ilmida ulkan martabaga ega ekanligini zikr qilgan.

Agar buyuk imom shug‘ullangan sohalarni sarhisob qilinsa, imomning islom ta’limotiga oid deyarli barcha sohada mo‘tabar va muhim manbalarni ta’lif etganiga guvoh bo‘linadi. Abu Hanifa yashagan hijriy II asr islom tafakkurida aqidaviy parokandalik kuchaygan davr edi. Bu davrda qadriy, jabariy, murji‘iy, xorijiy, mu‘taziliy kabi oqimlar faol bo‘lib, iymon, qadar, gunohi kabira va Allohning sifatleri borasida keskin bahslar mavjud edi. Abu Hanifa aynan shu murakkab muhitda ahli sunna aqidasi himoya qiluvchi ilmiy pozitsiyani egalladi [6].

U siyosiy hokimiyatdan uzoq turgan bo‘lsa-da, aqidaviy masalalarda betaraf bo‘lmagan va bid’atchi oqimlariga qarshi ilmiy dalillar bilan javob bergan.

Abu Hanifaning aqida ilmiga munosabati borasida so‘z borar ekan, olimning kalom ilmini mutlaq rad etmagani, aksincha: “Aqida masalalarida aqlni ishlatmaslik -bid’atchilarga maydon bo‘shatishdir” degan mazmundagi qarashlarni ilgari surgani namoyon bo‘ladi.

U kalomni din asoslarini himoya qilish vositasi sifatida ko‘rgan, biroq unga falsafiy haddan oshish orqali kirishishdan tiyilgan. U zot aqida ilmiga oid bir qancha asarlar bitgan. Dastlab aqida ilmning “Fiqhul akbar”-“Katta fiqh” deb nomlanishiga ham olimning shu nomda ta’lif qilgan asari ham nazariy, ham amaliy asos bo‘lgan [7]. Shuningdek imomning ilmiy merosida fiqh ilmning o‘rni ham nihoyatda beqiyos. Abu Hanifa tomonidan yechim berilgan fiqhiy masalalar, hukmlar hanafiy mazhabi fiqhining asosi sifatida naql qilinib, to bugungacha ham amaliyot, ham nazariyotda suyaniladigan ulkan ustun bo‘lib xizmat qilib kelmoqda. Shogirdlari va mazhab ahli tomonidan u zot

rivoyat qilgan hadisi shariflar bir qancha “Musnad”, “Osor” kabi asarlarda jamlangan. Ulamolar e’tirofiga ko‘ra Imomi A’zamning aksar asarlari shogirdlari tomonidan imlo qilingan hisoblanadi[8].

Abu Hanifa hadislarini qabul qilishda nihoyatda ehtiyotkor bo‘lgan. U hadislarini sanad ishonchliligi, Qur‘on va sunnatga muvofiqligi, fiqhiy qoidalarga zid emasligi asosida baholagan. Shu sababli, Abu Hanifa hadis ilmini inkor qilgan degan da‘volar ilmiy asosga ega emas. Abu Hanifa ilmiy merosining tizimli shaklda saqlanib qolishida uning shogirdlari muhim rol o‘ynagan. Abu Yusuf Ya‘qub ibn Ibrohim, Muhammad ibn Hasan ash-Shayboniy, Zufar ibn Huzayl kabi shogirdlari Hanafiya mazhabining ilmiy asoslarini mustahkamlanishida ulkan xizmat qildilar. Muhammad ash-Shayboniyning “Kitabul asl”, “Jomi‘ul kabir”, “Siyar” kabi asarlari Hanafiya fiqhining yozma manbalarini tashkil etadi[9].

Bugungi kunda Abu Hanifa merosi islom huquqi nazariyasi, huquq falsafasi, davlat va jamiyat munosabatlari kontekstida keng o‘rganilmoqda. Uning ijthodiy yondashuvi zamonaviy huquqiy muammolarni hal etishda muhim metodologik asos bo‘lib xizmat qilmoqda.

Abu Hanifa islom huquqiy tafakkurining rivojida tub burilish yasagan buyuk allomadir. Uning hayoti ilmiy mustaqillik va axloqiy qat‘iyat timsoli bo‘lsa, ilmiy merosi fiqhni zamon va makon bilan uyg‘unlashtirishga imkon beruvchi mukammal metodologiyani ifodalaydi. Abu Hanifa merosini chuqur o‘rganish bugungi kunda ham ilmiy va amaliy ahamiyat kasb etadi.

Olim nafaqat fiqhiy maktab asoschisi, balki ahli sunna aqidasiining ilk nazariy poydevorini qo‘ygan buyuk mutafakkirdir. Uning ilmiy merosi fiqh va aqidani ajratmasdan, bir-birini to‘ldiruvchi yagona tizim sifatida shakllangan. Abu Hanifa merosini aynan shu integrativ yondashuvda o‘rganish zamonaviy islomshunoslik uchun muhim ilmiy vazifadir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 11-avgustdagi PQ-4802-son “Imom Moturidiy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori.
2. Muhiddin Abu Muhammad Abdulqodir Abul-Vafo Qurayshiy. Javohiril mudiyya fi tabaqotil hanafiyya. – Haydarobod: Maktbaatu maorif, 1332.
3. Akrom Muhammad Ismoil Abu Avvod. Majmuu’ kutub va rosail va vasoya Imamul A’zom Abiy Haniyfa. – Ummon: Maktabatul g‘onim lin nashr vat tavziy’, 2022. – 571 b.
4. Mirzaahmedov Karimullo. Hadis ilmiga oid manbalarda Abu Hanifaning muhaddis sifatida yoritilish, magis.diss. Inv №52370. Toshkent 2017. – B. 95.
5. Akrom Muhammad Ismoil Abu Avvod. Majmuu’ kutub va rosail va vasoya Imamul A’zom Abiy Haniyfa. – Ummon: Maktabatul g‘onim lin nashr vat tavziy’, 2022. – 571 b.
6. Saidmuxtor Oqilov. Movarounnahrda moturudiya ta’limotining shakllanish tarixi. – Toshkent: Movarounnahr, 2012. – 185 b.
7. Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Sunniy aqidalar. – Toshkent: Movarounnahr, 2019. – 544 b.
8. Alloma Abul Muntaho Ahmad ibn Muhammad Mag‘nisaviy. Sharhu fiqhil akbar. –Istanbul: Darus siroj, 2018. – 144 b.
9. Mulla Aliy Qoriy. Sharhu fiqhil akbar. – Bayrut: Darul bashoir islomiyya, 1998.